



INNOVATSIYALAR VA INTELLEKTUAL MULKNI HIMOYA QILISH

Shaxobiddinova Isomiddin qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universtiteti

Xalqaro huquq fakulteti 1-kurs talabasi.

Email: ezozashaxobiddinova@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kundagi zamonaviy innovatsiyalar va intellektual mulk tushunchasi, ularning bog'liqligi va uni himoya qilish.

Kalit so'zlar: mualliflik huquqi, konvensiya, fuqarolik huquqi, tijorat. Innovatsiya.

Abstract: In this article, the modern concept of innovation and intellectual property today, their fragility and its protection.

Key words: copyright, convention, Civil Law, Commerce, innovation.

Аннотация: В этой статье рассматриваются современные инновации и понятие интеллектуальной собственности на сегодняшний день, их разделение и защита.

Ключевые слова: Авторское право, конвенция, гражданское право, коммерция, инноватсия.

Bugungi kunda, mamlakatimizda intellektual mulk sohasini rivojlantirish, muallif va boshqa huquq egalarining qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga alohida e'tibor berilmoqda. Intellektual mulk va uning innovatsiyalar bilan bog'liqligi sezilarli, ya'ni, yangi g'oyalar va texnologiyalarni yaratuvchilarni huquqiy himoya qilish va shu orqali

iqtisodiy foyda olish uchun imkoniyat yaratadi. Intellektual mulkni rag'batlantirishga doir normalar asosiy qonunimizdan ham o'rinn olgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining **53-moddasida** har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanib, intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinishi va davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qilishi qat'iy belgilab qo'yilgan". Birinchi navbatda, tarixga nazar tashlansa, intellektul mulk tushunchasi, 1967-yil jahon intellektual mulk tashkilotini tashkil etgan Konvensiyaga asoslangan holda joriy etildi va O'zbekiston ham shu tashkilotga a'zo. Intellektual mulk va mualliflik huquqi fuqarolik huquqining bir qismi, aqliy mehnat mehnat qiluvchi jamiyat azolarining huquqlarini himoya qiluvchi vosita. Asosiy maqsad esa, badiiy qadr-qimmati va ifodalanish usuli dan qat'i nazar, chop etilgan barcha qo'lyozma





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



shaklidagi asarlarning barchasiga taalluqli. Mualliflik huquqi-fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratish va ulardan foydalanishda vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soladigan fuqarolik huquqi me'yorlari majmuasidir.

Intellektual mulk va uning himoyasi innovatsiyalar va iqtisodiy o'sishni ham ta'minlaydi. Ya'ni, inson aqliy mehnati bilan yaratilgan majmuasi, yaratuvchilarga o'z ijodiy ishlarini himoya qilish imkonini beradi, ya'ni, kompaniyalar, mahsulotlarini himoya qilish orqali o'z brendlarini himoya qiladi va natijada, yanada yangi innovatsiyalar yaratilishi uchun turtki bo'ladi. Misol uchun, biror dasturchi yangi mobil ilova yaratganida uning xavfsizligi nuqtai nazaridan, mualliflik huquqi orqali himoya qilib, begonalar tomonidan noqoqnuniy tarzda buzib kirilishi yoki nusxalanishidan saqlaydi. Bundan tashqari, quydagi keltirilgan elementlar orqali ham himoya qilish mumkin:

1- "©"

2- "**muallifning ismi(nomi)**"

Asarning asl nusxasida yoki nusxasida muallif sifatida ko'rsatilgan shaxs, agar boshqacha hol isbotlanmagan bo'lsa, asar muallifi hisoblanadi"

Intelektual mulk nafaqat bir mamlakat miqyosida, balki, xalqaro miqyosda himoya qo'linadi va xalqaro huquq me'yorlariga asoslangan hujjatlarda tartibga solinadi. Misol: "Mualliflik huquqi to'g'risida Butunjahon konvensiyasi bitimlari" (1952).

Intelektual mulk tushunchasi mualliflik huquqi bilan ham bog'liq ekan, bir qator vazifa va majburiyatlarni aks ettiradi. Jumladan:

mualliflarning mulkiy, shaxsiy nomulkiy va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish;

huquqiy vositalar yordamida ilmiy va badiiy asarlarni yaratish uchun eng maqbul sharoitlar yaratishdir.

Innovatsiyalar va intellektual mulk o'rtaidagi bo'g'liqlik, iqtisodiy manfaat olish imkonini beradi. Intellektual mulk huquqlari innovatsiyalarni rag'batlantirish, tijoratlashtirish va global miqyosda tarqatish uchun zarur vosita hisoblanadi. Bu jarayonlarni o'zaro aloqasi esa, innovatsiyalarni amalga oshirish va keng miqyosda foydalanishga joriy etishda muhim ahamiyatga ega. Intellektual mulk va innovatsiya tushunchasi zamonaviy dunyoda yuridik yordam-huquqshunos,yuristlar yordami va konsultatsiyalari bilan, intelektual mulkni ro'yxatga o'tkazish orqali himoya qilish, turli kompaniyalar va xodimlar orasida maxfiy kelishuvlar, ya'ni, ular orasida shartnomalarni imzolab, kerakli ma'lumotlarni himoya qilish va bir qator shunga o'xshash inrelektual mulkni himoya qilish usullari orqali keng tarqalgan va ishonchli hamdir. Muallif asarini tugatgach, uni keng ommaga tanishtirishga qaror qiladi va uni nashr qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladigan korxona bilan shartnoma tuzadi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



Mualliflik shartnomasi shartlarida noshirga beriladigan aniq huquqlar, shartnomaning amal qilish muddati va to‘lanadigan haq (qalam haqi) miqdori ko‘rsatiladi. Bu shartlardan tashqari, muallif va nashriyot zarur deb hisoblagan boshqa shartlarni ham shartnomaga kiritishlari mumkin.

Asar yaratilishida ikki va undan ortiq shaxlar o’rtasida yaratilgan asar yoki san’at namunasi hammualliflikdagi ijod namunasi hisoblanadi va bu asarning yanada mazmundorligini oshiradi. Hammualliflikda yaratilgan asarga bo‘lgan mualliflik huquqi hammualliflarning butun hayoti davomida va ular orasida eng uzoq umr ko‘rgan shaxs vafotidan keyin 70 yil davomida amal qiladi.

ADABIYOTLAR

DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI. O‘rta ta’lim maktablarining 10-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilari uchun darslik. Toshkent «Yangiyo‘l Poligraf Servis» 2017 yil

